



**KUZ MANZARASIDA JAMIYAT SIYMOSI: MUNAVVARQORI  
ABDURASHIDXONOV SHE'RINING IJTIMOIY-SIYOSIY TALQINI**

*Mamatova Nilufar Nuriddin qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va  
adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Ilmiyrahbar: dots. A.U.Mo'ydinova*

**Kalit so'zlar:** Munavvarqori Abdurashidxonov, "Kuz", ma'rifatparvarlik, tabiat, jamiyat, ironiya, ijtimoiy-siyosiy jarayon.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Munavvarqori Abdurashidxonovning "Kuz" nomli she'ri ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy kontekstda tahlil qilinadi. She'rda kuz faslining kirib kelishi orqali tabiatdagi o'zgarishlar poetik tasvirlangan bo'lsa-da, chuqur tahlil natijsasida ushbu manzaralarda jamiyatdagi ruhiy bosimlar, xalq hayotining og'ir sharoitlari, ma'rifat va o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyoj ifodalanganligi aniqlanadi. Tahlilda she'rning poetik uslubi, badiiy obrazlar tizimi va metaforalar orqali berilgan g'oyaviy qatlamlar o'rganilib, muallifning ma'naviy qarashlari ochib beriladi. Maqola adabiy va tarixiy tafakkur nuqtai nazaridan she'rni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Kirish qismi:**

O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonov, nafaqat o'z davrining ilg'or fikrli ziyolisi, balki xalq dardini, jamiyatdagi o'zgarishlarni chuqur anglagan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Uning "Kuz" she'ri ilk qarashda fasllar almashinushi, tabiat manzarasining poetik ifodasi sifatida ko'rinsa-da, satrlar orasidan ijtimoiy hayot manzaralari, xalqning kundalik mehnati, jamiyatdagi muammolar va ma'rifat sari yo'naltirilgan umidlar yaqqol seziladi. Kuz — muallif nigohida oddiy bir fasl emas, balki o'zgarishlar, ruhiy silkinishlar va yangilanishlarning ramzidir. Adib she'r orqali tabiatni tasvirlar ekan, aslida xalq hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni, ma'naviy iztiroblarni va ma'rifatga bo'lgan ehtiyojni badiiy ifoda etadi. Ana shu jihatlarni ochib berish mazkur maqolaning asosiy maqsadidir.

**Asosiy qism:**

Munavvarqori Abdurashidxonov o‘zining jadidona yondashuvi orqali xalqni ma’rifatga chorlagan, adabiy so‘z vositasida jamiyatning og‘riqlarini tasvirlay olgan yuksak didli adiblardan biridir. Uning “Kuz” she’rida tabiatdagi o‘zgarishlar fonida xalq hayotidagi og‘ir mehnat, ruhiy siquv, lekin shu bilan birga ma’rifatga bo‘lgan ishonch ham aks etadi. She’r har bir satrida badiiylik va g‘oyaning uyg‘unligi bilan o‘quvchini o‘ylantiradi, kuzatishga chorlaydi.

She’rda ilk satrlardan boshlab tabiatning sokin, ammo sovuq nafasi seziladi: **“Kuzning sovuq yeli esib, Sarg’aytirdi yoz yuzini...”** Bu tasvirlar orqali yozning — ya’ni hayotning sermahsul, farovon bir faslining yakuni, uning orqasidan esa og‘irlik, salqinlik va tan olish zarurati kelayotganini anglaysiz. She’rning ichki ruhiy ohangi insonning ruhiy kechinmalarini bilan uyg‘unlashadi: o‘simliklar titrab qaqshaydi, bulutlar ko‘kni qoplaydi. Bu faqatgina tabiat hodisalari bilan bog‘liq holat emas, bu yerda xalq va jamiyat hayotiga ñoz ta’sirini singdirayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayon ham aks etganligini anglashimiz mumkin. **“Kuz askari keldi bosib, Qirildi yaprog‘lar, o’tlar...”** Bu yerda “askari” so‘zining ishlatilishi kuzni faol kuch, o‘zgarish olib kiruvchi shiddatli qudrat sifatida ko‘rsatadi. Yaproqlar va o’tlar esa bu o‘zgarishlarga bardosh bera olmay yo‘qolayotgan qadriyatlar, g‘oyalar yoki sharoitlar bo‘lishi mumkin. Bulutlar ko‘z yosh to‘kadi — bu holat faqat tabiatdagi manzara emas, balki jamiyatdagi qayg‘u, ichki motam obrazidir.

She’rda gullar rangini yo‘qotadi, bog‘lar bulbuldan ayrıldi. Go‘zallik ketadi, o‘rnini qarg‘anining qag‘illashi egallaydi. Bu o‘zgarishlar inson ruhiyatida ham aks etadi:

**“Sevingandan olaqarg‘a Qag‘illaydi bo‘ynin cho‘zib.”**

Bu satrda hatto tabiatdagi qushlar ham o‘zini tutolmay, xuddi shodlanayotgandek holatga keladi. Lekin bu “sevinch” bejiz emas — bu yerda ironiya bor. Kuz — ayriliq, sovuqlik, sinovlar fasli. Ammo muallif kuz faslini faqat yo‘qotish, xazonlik sifatida emas, balki **yangilanishga eshik ochuvchi bir davr** sifatida ham ko‘rsatadi: **“Ey, kuz! Sening ishlaringdan Bir yaxshisi esga keldi: Yoz bo‘yicha yopiq turgan Maktablar senda ochildi.”** She’rning eng muhim, g‘oyaviy cho‘qqisi aynan shu joyda namoyon bo‘ladi. Muallif uchun kuz — maktablar ochiladigan, tafakkur tiklanadigan, xalq ongiga nur



sochadigan fasl. Bu yerda maktab — ma'rifat, yangilik, umid timsoli. Kuz — boshlanish fasli sifatida yangicha talqin etiladi. Har bir obraz ramziy ma'no kasb etadi: bulut — bosim; qarg'a — xomushlik va ayriliq; yaproq — o'tgan davrlar, va nihoyat, maktab — kelajak sari umid.

Adib she'rnii hayotiy tasvirlar bilan to'ldirar ekan, hech qachon faqat shikoyat bilan chekshanmaydi — u doimo umidga chorlaydi. Qanchalik qirov tushmasin, qanchalik bulutlar quyoshni to'smasin, baribir bilim nuri, maktab eshiklari ochiladi. Ana shu ijobiy ruh, ana shu insonparvar pozitsiya uni ma'rifatparvar adiblar safida porlatadi.

### Xulosa:

Munavvarqori Abdurashidxonovning "Kuz" she'ri nafaqat fasllar almashinuvi haqida yozilgan oddiy poetik asar, balki unda xalq ruhiyati, davr iztiroblari va ijtimoiy o'zgarishlar badiiy ramzlar orqali teran aks etgan. She'rda kuz — xazonrezgi, sovuq, bulutli manzara sifatida tasvirlansa-da, bu tasvirlar orqasida xalqning og'ir mehnati, ruhiy bosimi va ayni paytda, ma'rifat sari intilishi yotadi. Shoir o'ziga xos poetik uslubda har bir detaldan chuqur ijtimoiy ma'no chiqaradi: yaproqlarning to'kilishi — eskilikdan voz kechish, qarg'aning qag'illashi — ruhiy beqarorlik, maktab ochilishi esa — yangilanish va umidning belgisi.

Abdurashidxonov uchun she'riyat — faqat go'zallik emas, balki xalq dardi, ma'rifiy uyg'onish va jamiyatga xizmat qilish vositasi hamdir. "Kuz" she'rida ham ana shu maqsad ustuvor: shoir tabiat manzarasiga jamiyat holatini, xalqning ruhiy kechinmalarini va o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojini mujassamlashtiradi. She'r oxirida maktablarning ochilishi bilan bog'liq ijobiy ruh esa shoir dunyoqarashining umidga to'la, kelajakka ishonch bilan qaraganiga dalildir.

Demak, "Kuz" she'ri bizga nafaqat fasllar almashinividagi go'zallikni, balki bir xalqning tarixiy ruhiyatini, uning iztirob va orzularini, eng muhimi, ma'rifatga bo'lgan intilishini badiiy shaklda anglash imkonini beradi. Shoir o'z asari orqali bizni o'ylashga, his qilishga, va har faslda chuqurroq ma'nolarni anglashga chorlaydi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jadidlar.Sotimjon Xolboyev.Munavvarqori Abdurashidxonov.Toshkent 2022.
2. Qo'chqorov T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012.



3. G'ulomov N. Adabiy tahlil asoslari. Toshkent: "Yozuvchi", 2004.
4. Vohidov S. XX asr o'zbek she'riyati. Toshkent: "Universitet", 2010.